Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 37

TIL O‘QITISH METODIKASI VA RAQAMLI PEDAGOGIKA

Chet tillarni o‘qitishda kommunikativ kompetensiya: nazariy yondashuvlar, tarkibiy modellar va sun’iy intellekt imkoniyatlari

Furqat Komilov*

Farg’ona davlat universiteti

✉ furqat.komilov1996@gmail.com

ANNOTATSIYA

Annotatsiya. Mazkur maqolada chet tillarni, xususan, nemis tilini o‘qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari tahlil etilgan. Tadqiqotda kommunikativ kompetensiya tushunchasining lingvopedagogik mohiyati ochib berilib, uning lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, diskursiv, strategik, sotsiokulturologik va metakognitiv komponentlari tizimli ravishda yoritilgan. D.Hymes, M.Canale va M.Swain, L.Bachman, M.Byram, M.Celce-Murcia, J.C.Richards hamda boshqa xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, kommunikativ kompetensiyaning zamonaviy talqinlari o‘zaro qiyoslangan. Shuningdek, CEFR doirasida kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy jihatlari va ularni baholash mezonlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda real kommunikativ vaziyatlar, dialog, munozara, rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar va madaniyatlararo faoliyatning metodik ahamiyati asoslangan. Tadqiqotning alohida e’tiborga molik jihati sun’iy intellekt texnologiyalarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlarini yoritishdan iborat bo‘lib, SI vositalaridan individual feedback, nutqni tahlil qilish, xatolarni aniqlash, refleksiya va metakognitiv monitoringni tashkil etishda foydalanish istiqbollari asoslangan. Natijada kommunikativ kompetensiya til bilimlari, nutqiy faoliyat, tafakkur, strategik yondashuv va madaniyatlararo muloqotning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan ko‘p qatlamli pedagogik tizim sifatida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar

Kalit so’zlar: kommunikativ kompetensiya, chet til ta’limi, nemis tili, kommunikativ yondashuv, lingvistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, sotsiokulturologik kompetensiya, metakognitiv kompetensiya, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, individual feedback, CEFR.

DOI: 10.5281/zenodo.23281488

Chet til o‘qitish metodikasida kommunikativ kompetensiya tushunchasi shu tilni o‘rganish jarayonining uzviy metodik paradigmasi hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya o‘rganilayotgan chet tilining lingvistik tuzilmasini bilish bilan bir qatorda, undagi til vositalaridan real, hayotiy vaziyatlarda kommunikativ maqsadga mos holda, ham ijtimoiy, ham madaniy jihatdan mos ravishda foydalana olish qobiliyatini anglatadi. Umuman olganda bu kompetensiya til o‘rganuvchining lingvistik bilimi, uning muloqot tajribasi hamda madaniy kontekstdagi faol nutqiy faoliyatini birlashtiruvchi kompleks psixolingvistik tizim sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

Chet tillarni o‘qitishda kommunikativ kompetensiya tushunchasining lingvopedagogik mohiyatini aniq ochib berish uchun avvalambor uning ilmiy-nazariy asoslariga to‘xtalib o‘tish lozim.

Hozirgi kunda dunyo chet til o‘qitish metodikasida eski, an’anaviy grammatik-tarjima metodi o’rnida keng qo‘llanilib kelinayotgan yondashuv bu aynan kommunikativ yondashuv hisoblanib, bu yo‘nalishning dastlabki nazariy poydevori XX asrning so‘nggi choragida ingliz olimi D.Hymes tomonidan yaratilgan. Tadqiqitchi “kommunikativ kompetensiya”ni quyidagicha talqin qilgan: *kommunikativ kompetensiya – bu grammatik jihat-*

dan to‘g‘ri hamda ijtimoiy jihatdan maqbul nutqni ishlab chiqish qobiliyati[1]. Keyinchalik esa ingliz olimlari M.Kanale va M.Swain[2]lar bu konsepsiyaga to‘rt komponentli tizim sifatidagi keng talqinni olin kirishgan. Ushbu to‘rt komponentli tizim lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompensator komponentlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Ushbu komponentlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi hamda integratsiyasi esa kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishining asosiy omili sifatida qarala boshlangan. Ushbu komponentlarni quyidagi jadvalda yanada aniq tasvirlashga, ularning mazmuni va metodik ta’rifini tizimli tarzda yoritib berishga harakat qildik:

Jadval 1.1

Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy komponentlari

№	Komponent nomi	Mazmuni	Metodik ta’rifi
1	**Lingvistik kompetensiya**	Til o‘rganuvchining grammatik hamda leksik bilimlarni egallashi	Til o‘rganuvchining grammatik mavzularni o‘zlashtirish va ularni kommunikativ vaziyatda to‘g‘ri qo‘llay olishi
2	**Sotsiolingvistik kompetensiya**	Til o‘rganuvchi tomonidan so‘zlanayotgan nutqning ijtimoiy kontekstga mos ekanligi	Muloqot jarayonida rasmiylik darajasini to‘g‘ri tanlay olish
3	**Diskursiv kompetensiya**	Til o‘rganuvchi tomonidan matnning mantiqiy izchillikni ta’minlanishi	Matnda semantik koherensiya hosil qila olish, ya’ni mazmunning o‘zaro bog‘liqligi
4	**Strategik-kompensator kompetensiya**	Til o‘rganuvchining chet til o‘rganish jarayonidagi to‘siqlarni yenga olishi, parafraz va sinonim kabilardan foydalana olishi	Muloqot jarayonidagi uzilishlarni boshqarish va to‘ldira olish

M.Kanale va M.Swainlar tomonidan taklif etilgan ishbu konsepsiya XX asr oxirlarida L.Bachman tomonidan “Communicative Language Ability/Kommunikativ til ko‘nikmasi” konsepsiyasi nomi ostida yanada kengaytirilgan[3]. Tadqiqotchi ushbu konsepsiyaga psixofiziologik mexanizmlar, metakognitiv (o‘z-o‘zini nazaorat qilish) nazorat komponentlarini ham kiritishni taklif qilgan. L.Bachmanning quyidagi fikri ham alohida ahamiyat kasb etadi: “til egallash jarayonini faqat bilimlar tizimi emas, balki shaxsning nutqiy faoliyatni boshqarish strategiyasi sifatida baholanadi”[4]. Undan ko‘rishimiz mumkinki, olim til o‘rganish jarayonida o‘z nutqiy faoliyatini boshqarish, strategik-kompensator komponentga yuqori baho bergan.

O‘zbekistonlik bir qator tadqiqotchilar ham o‘zlarining izlanishlarida kommunikativ kompetensiyani keng yoritishga harakat qilishgan. So‘nggi yillarda olib borilgan izlanishlarning ichida kommunikativ kompetensiyani metakognitiv refleksiya bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etilayotgani alohida ahamiyatga ega. Masalan, A.Sobirov kommunikativ kompetensiyani “talabaning nutq faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish va o‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘z ichiga olgan integrativ qobiliyat” sifatida ta’riflaydi[5]. N.Merganova[6] esa nemis tilini mutaxassislik sifatida o‘rganuvchi talabalarda og‘zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirish texnologiyasi mavzusini tadqiqqa tortgan va o‘z izlanishida og‘zaki nutqning xususiyatlarini, xususan, u yozma nutqdan farq qilishi, oldindan tayyorlanmaganligi, avtomatlashganligi va interaktivligi bilan tavsiflanishini, psixolingvistik omillar, talaffuz, leksika, grammatika, shuningdek mimika, jest va imo-ishoralar kabi lingvistik va ekstralingvistik vositalar nutqni amalga oshirishda katta rol o‘ynashini, innovatsion metodlar, ya’ni raqamli texnologiyalar (videolar, podkastlar, audio xabarlar), “jonli qo‘ng‘iroq” va boshqa multimedia vositalari yordamida talabalar og‘zaki nutq bo‘yicha mashqlar bajarishi maqsadga muvofiqligi, talabalar orasida nutq qilishga bo‘lgan qo‘rqinch, uyushish hissi, motivatsiya masalalarini ham tadqiq etilgan. Tadqiqotchi internet va kommunikatsiya vositalari, zamonaviy texnologiyalarning og‘zaki nutq rivojlanishiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’sir etishini asoslashga harakat qilgan. Sh.Rahmonov esa chet tili o‘rganishda madaniyatlararo kontekstni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi va uni ijtimoiy-madaniy kompe-

[1]Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin.

[2]Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.

[3]Bachman, L. F. (1990). Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford: Oxford University Press.

[4]Bachman, L. F. & Palmer, A. S. (1996). Language Testing in Practice. Oxford: Oxford University Press.

[5]Sobirov A. Chet tillarni o‘qitishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari. 2018. -Toshkent: TDPU nashriyoti.

[6]Merganova N. M. Nemis tilini mutaxassislik sifatida o‘rganuvchi talabalarda og‘zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirish texnologiyasi: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. – Farg‘ona, 2022. – 24 b.

tensiya bilan uyg‘un holda talqin etishga alohida e’tibor qaratadi[7]. D.Qodirova va B.Yo‘ldoshevlaarning fikriga ko‘ra esa, til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, metakognitiv monitoring jarayoni bilan, ya’ni talabaning o‘z nutq xatolarini aniqlash, tahlil qilish va to‘g‘rilash mexanizmi bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydilar[8]. Yana bir o‘zbek tadqiqotchisi M.Madrahimova axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali chet tillarni o‘rgatish va o‘rganishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammolarni tadqiqqa tortishga harakat qilgan[9]. Lekin shunday bo‘lishiga qaramay nemis tilini o‘rgatish jarayonida til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini sun’iy intellect imkoniyatlaridan samarali va kengroq foydalanish asosida rivojlantirish masalasi keng tadqiq etilmagan. Bugungi kunda ta’lim jarayoniga sun’iy intellektni ongli ravishda integratsiya qilish zamon talabi deb ta’kidlash o‘rinli.

Quyida O‘zbekistonda xorijiy tillar, xususan nemis tiliga ixtisoslashtirilgan Filologiya va tillarni o‘qitish (nemis tili) va Xorijiy til va adabiyoti (nemis tili) ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha malaka talablarida kommunikativ kompetensiyaning ifodalanish shaklini jadval ko‘rinishida tasvirlashga harakat qilganmiz (1.2-jadvalga qarang):

1.2-jadval

Malaka talablarida kommunikativ kompetensiyaning aks etishi

Yo‘nalish nomi	Asosiy kommunikativ talablar	Integrativ komponentlar
Xorijiy til va adabiyoti (nemis tili)	Og‘zaki va yozma nutqda fikrni mantiqan izchil, madaniyatga mos ifoda etish; til va adabiy kontekstni uyg‘unlashtirish	Lingvokulturologik va pragmatik kompetensiyalar
Filologiya va tillarni o‘qitish (nemis tili)	Kommunikativ faoliyatda zamonaviy o‘quv texnologiyalaridan, xususan sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish	Metakognitiv va texnolingvistik kompetensiyalar

Yuqoridagi malaka talablarida til o‘rganuvchilarda til, madaniyat va tafakkur integratsiyasiga asoslangan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni maqsad qilingan.

Kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirilishi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ichida MDH olimlarining ilmiy yondashuvlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. XXI asr boshlarida MDH mamlakatlari va rus tadqiqotchilari kommunikativ kompetensiyani *kompetensiyaviy yondashuv* asosida tahlil qilishga katta urg‘u berishgani kuzatish mumkin. Xususan, E.Passov tilni kommunikativ yondashuv asosida o‘qitishni shaxsga yo‘naltirilgan chet til o‘qitish metodikasining markaziga qo‘yib, til o‘qitishning maqsadini “muloqot jarayonida shaxsning o‘zini ifoda etish ehtiyojini qondirish” deb belgilaydi[10]. Yana bir rus tadqiqotchisi I.Bim esa kommunikativ kompetensiyani “til vositalarini maqsadga muvofiq tanlash va nutqni mantiqan qurish malakasi[11]” sifatida izohlaydi. A.Shchukin esa bu kompetensiyani til egallashning pirovard natijasi, ya’ni “nutqiy faoliyatning barcha turlari o‘zaro uyg‘unlashgan holat” deb talqin qiladi[12].

Ularning qarashlari haqidagi tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ kompetensiya bugungi kunda nafaqat tilni egallash natijasi emas, balki til o‘rganuvchining ijtimoiy-intellektual faoliyat mexanizmi sifatida ham tushunilmoqda.

Quyida esa dunyo olimlari tomonidan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi konseptual yondashuvlariga e’tibor qaratib o‘tishga harakat qildik. Nemis tadqiqotchilari K.Kleppin va T.Zeyerlar nemis tili o‘qitish va o‘rganishda kommunikativ kompetensiyani baholash uchun sun’iy intellekt (SI) tahlil vositalari (feedback analytics)ga asoslangan obyektiv monitoringni taklif etishgan[13]. Fikrimizcha, K.Kleppin va T.Zeyerlarning bu yondashuvi an’anaviy baholash metodlaridan katta farq qiladi, chunki u subyektivlikni kamaytiradi. Bundan tashqari bu yondashuv natijalarning aniqligi bilan ham farqlanadi va pedagogik jarayonni raqamlashtirish va individualizatsiyalash imkoniyatini oshiradi. Ularning ishida sun’iy intellekt (SI) vositalarining pedagogik samaradorligi hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi roliga alohida e’tibor qaratilganligini ta’kidlash lozim. Tadqiqot natijasi sifatida zamonaviy til o‘qitish metodlari va

[7]Rahmonov Sh. Chet tili o‘qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari. -2020. “Ta’lim va innovatsiya” jurnali, №3.

[8]Qodirova, D. Metakognitiv strategiyalar asosida nutqiy faoliyatni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish. -2021. Toshkent: Tashkent State Pedagogical University. Yo‘ldoshev B. Til o‘qitish jarayonida refleksiv tahlil asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasi. 2022. -Farg‘ona: FDU nashriyoti.

[9]Madrahimova M. Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali til o‘rganishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. -2023. “Oliy ta’limda innovatsiyalar” jurnali, №1.

[10]Passov E. I. Kommunikativnoye inoyazichnoye obrazovaniye: Kontseptsiya razvitiya. -Voronej: Istoki. 2000.

[11]Bim I. L. Metodika obucheniya inostrannym yazykam kak nauka i problema shkolnogo uchebnika. -Moskva: -2001. Prosveshcheniye.

[12]Shchukin A. N. Metodika obucheniya inostrannym yazykam: teoriya i praktika. Moskva: -2019. Filomatis.

[13]Kleppin K., Zeyer T. Evaluation und Feedback im DaF-Unterricht: Digitale Methoden und Analytik. -Berlin: 2021. Goethe-Institut Verlag.

texnologiyalarining integratsiyasini yaqqol ko'rish mumkin, hamda kelajakda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi baholash jarayonini samarali va shaffof qilishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Hammamizga ma'lumki, butun dunyo miqyosida kommunikativ kompetensiyaning rivojlanganlik darajasini baholashning yagona nazariy platformasi 1990-yilda Yevropa kengashining CEFR (Common European Framework of Reference for Languages), ya'ni umumyevropa ittifoqi e'tirof etgan til bilish me'yorlari tomonidan ishlab chiqilgan va 2001-yildan boshlab rasman tasdiqlangan[14]. Bu tizimga asosan chet til bilishning asosiy tarkibiy kompetensiyalaridan biri bo'lgan kommunikativ kompetensiya uchta asosiy qismga ajratilgan. Uniq quyidagi jadval yordamida yanada yaqqolroq ko'rsatishga harakat qildik (1.3-jadvalga qarang):

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, kommunikativ kompetensiyaning har bir tarkibiy elementi, uning to'laqonli rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etar ekan. Yetarli darajada leksik va grammatik bilimlarga ega bo'lgan holda, madaniyatlararo muloqot qilish ko'nikmasi, ya'ni boshqa mamlakatlar, xususan, tili o'rganilayotgan mamlakat madabiyatidan xabardor bo'lmaslik ushbu kompetensiyaning mukammal darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

1.3-jadval

CEFRda kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy komponentlarining berilishi

T/R	Asosiy komponent	Tavsif	Baholash mezonlari (CEFR)
1	Til (lingvistik) kompetensiya	Tilning leksik, fonetik, grammatik tizimini bilish	Til o'rganuvchining so'z boyligini kengligi, gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish
2	Nutq (pragmatik) kompetensiya	Nutqni kommunikativ maqsaddan kelib chiqib qurish	Matnning mantiqiy izchilligi, grammatik va leksik birliklarning o'zaro muvofiqligi va ravonligi
3	Madaniyatlararo kompetensiya	Turli madaniyatlar vakillari bilan muloqot qila olish	Nutqiy vaziyatga moslik, madaniyatlararo xabardorlilik darajasi

Ingliz tadqiqotchisi R.Richards kommunikativ kompetensiyani "tilni muloqotda erkin ishlata olishni o'rgatuvchi didaktik paradigma" sifatida qayd etadi: "… til o'rganishda asosiy e'tibor qoidalarni yodlashga emas, balki tilni real hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llay olishga qaratilishi lozimligini ta'kidlaydi. Bunday yondashuvga ko'ra, til faqat grammatik tuzilmalardan iborat tizim emas, balki ijtimoiy muloqot vositasi hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya til o'rganuvchining fikrini aniq va tushunarli ifodalashi, suhbatdoshni tushunishi va unga mos javob bera olishi, nutqni vaziyat, mavzu va ijtimoiy muhitga mos ravishda qo'llashi kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Chet til o'qitish nazariyasida didaktik paradigma sifatida kommunikativ kompetensiya til o'qitish jarayonida dialog va munozaralarga, rolli o'yinlarga, muammoli vaziyatlarga, real muloqotni aks ettiruvchi mashqlarga keng o'rin berilishini talab qiladi. Natijada o'quvchi tilni faqat biladigan emas, balki undan faol foydalana oladigan shaxs sifatida shakllanadi[15]". Yana bir ingliz tadqiqotchisi Celce-Murcia esa uni "kommunikativ nutqni ishlab chiqish, boshqarish va baholashning integrativ modeli" deb talqin qiladi. Uning quyidagi fikrlarini alohida ta'kidlash o'rinli: "…tilni o'rganish jarayonini bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir nechta kompetensiyalar majmui hisoblanadi. Bunda kommunikativ kompetensiya faqat nutq hosil qilish bilangina cheklanmay, balki nutqni rejalashtirish, muloqot jarayonini nazorat qilish va natijani baholash bosqichlarini ham qamrab oladi. Samarali kommunikativ nutq, **lingvistik kompetensiya** (grammatika, lug'at, talaffuz), **diskurs kompetensiyasi** (matnning mantiqiyligi va bog'liqligi), **sotsiolingvistik kompetensiya** (nutqning vaziyat va ijtimoiy me'yorlarga mosligi), **strategik kompetensiya** (muloqotdagi qiyinchiliklarni yengib o'tish strategiyalari) kabi tarkibiy qismlarning integratsiyasi natijasida yuzaga keladi. Shu bois kommunikativ kompetensiyani **dinamik va kompleks tizim** deb aytish o'rinli. Til o'rganuvchi nafaqat nutqni hosil qiladi, balki uni muloqot davomida moslashtiradi, zarur hollarda tuzatadi va o'z kommunikativ samaradorligini baholay oladi. Bu yondashuv til ta'limida **kompetensiyaviy yondashuv**ning nazariy asosini mustahkamlab, til o'rganuvchini real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlashga xizmat qiladi[16]."

Yana bir ingliz tadqiqotchisi M.Byram kommunikativ kompetensiyani madaniyatlararo kompetensiya bilan uyg'unlashtirib, o'qituvchining vazifasini "shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish" sifatida belgilaydi: Uning ta'kidlashicha, "…til o'qitishning asosiy maqsadi faqat lingvistik bilimlarni egallash emas, balki **turli madaniyat vakillari bilan samarali va hurmatga asoslangan muloqot qila oladigan shaxsni shakllantirish** hisoblanadi. Til va madaniyat bir-biridan ajralmas tushunchalar bo'lib, tilni bilish – bu faqat grammatik jihatdan to'g'ri gapira olish emas, balki nutq

[14]Common european framework of reference for languages: Learning, Teaching, Assessment. https://rm.coe.int/16806d8893?utm_source

[15]Richards J. C. Communicative Language Teaching Today. Cambridge: Cambridge University Press. 2006.

[16]Celce-Murcia, M. Rethinking the Role of Communicative Competence in Language Teaching. In Intercultural Language Use and Language Learning. Springer. -2007. -pp. 41–57.

orqali ifodalanadigan **qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy me’yorlarni anglash** demakdir. Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya **bilim** (o‘z va o‘rganilayotgan madaniyat haqidagi ma’lumotlar), **munosabat** (ochiqlik, bag‘rikenglik, stereotiplardan holi yondashuv), **ko‘nikma** (taqqoslash, talqin qilish va muloqotda moslasha olish) hamda **tanqidiy madaniy ong** kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi[17]”.

Bizning fikrimizcha ham, chet til o‘qituvchining vazifasi til o‘rganuvchilarga faqat til birliklarini o’rgatish emas, balki ularda **madaniyatlararo muloqot ko‘nikmasini shakllantirish**, ya’ni boshqacha fikrlaydigan va yashaydigan insonlarni tushunish, hurmat qilish hamda ular bilan samarali muloqotga kirisha olish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo‘lishini ta’kidlashni o‘rinli deb topdik. Chet til o‘qitish jarayonida aynan ushbu yondashuvdan keng foydalanish maqsadga mubofiq. Chunki u til ta’limini ijtimoiy-madaniy jihatdan boyitadi, shu bilan birga til o‘rganuvchini global muloqot muhitiga tayyorlashga katta hissa qo‘shadi.

Kommunikativ kompetensiyaning mazmunini to‘liq yoritib berishda uning lingvopedagogik mohiyatiga to‘xtalib o‘tish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi keltirilgan tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib shuni aytish kerakki, kommunikativ kompetensiyani quyidagi ko‘p qatlamli pedagogik tizim sifatida ifodalash maqsadga muvofiq (1.4-jadvalga qarang).

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, chet tillarni o‘qitishda kommunikativ kompetensiya til o’rganuvchining til bilimlari, fikrlash jarayonlari va madaniyatlararo muloqot qila olish ko‘nikmasining uzviy birligi sifatida shakllanadi. U sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash orqali yangi bosqichga ko‘tariladi – bunda SI vositalari til o‘rganuvchinining nutqini tahlil qiluvchi, xatolarni kodlovchi va individual qayta aloqa (feedback) beruvchi raqamli mentor sifatida ishtirok etadi.

Kommunikativ kompetensiya bugungi didaktik paradigmalarda til o‘rganuvchining interaktiv, refleksiv va madaniyatlararo faoliyatini tashkil etuvchi markaziy kompetensiya sifatida e’tirof etilishi maqsadga muvofiq. Uning tarkibiy qismlarini esa sun’iy intellekt bilan integratsiyalagan holda rivojlantirish, til o‘rganish jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, tahliliy va o‘zini o‘zi boshqaruvchi tizim darajasiga olib chiqadi. Shu bois, nemis tili o‘qitish metodikasida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining tatbiqi til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy texnologik bosqichi sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

1.4-jadval

Kommunikativ kompetensiya ko‘p qatlamli pedagogik tizim sifatida

T/R	Kompetensiya turi	Asosiy mazmuni	O‘qitish jarayonida aks etishi
1	**Lingvistik**	Til tizimi va grammatik tuzilmalarni egallash	Leksik va grammatik mashqlar
2	**Pragmatik**	Muloqot maqsadini ifoda etish va tushunish	Rol o‘yinlari, simulyatsiyalar
3	**Diskursiv**	Matnning mantiqiy va semantik izchilligini ta’minlash	Dialog yaratish, matn tahlili
4	**Sotsiokulturologik**	Madaniyatlararo muloqot madaniyatini egallash	Interkultural darslar, 4madaniy loyihalar
5	**Strategik**	Nutqiy muammolarni bartaraf etish, kommunikativ strategiyalar	O‘zaro teskari aloqa, parafraz mashqlari
6	**Metakognitiv**	O‘z nutqini nazorat qilish, refleksiya va tahlil	AI yordamida feedback va xatolar tahlili

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Foydalanilgan adabiyotlar

[2] Hymes, D. H. (1972). On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin.

[3] Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.

[4] Bachman, L. F. (1990). Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford: Oxford University Press.

[17] Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. -Clevedon: Multilingual Matters. -1997.

[5] Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (1996). Language Testing in Practice. Oxford: Oxford University Press.

[6] Sobirov, A. (2018). Chet tillarni o‘qitishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.

[7] Merganova, N. M. (2022). Nemis tilini mutaxassislik sifatida o‘rganuvchi talabalarda og‘zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirish texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Farg‘ona.

[8] Rahmonov, Sh. (2020). Chet tili o‘qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari. Ta’lim va innovatsiya, №3.

[9] Qodirova, D. (2021). Metakognitiv strategiyalar asosida nutqiy faoliyatni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish. Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti.

[10] Yo‘ldoshev, B. (2022). Til o‘qitish jarayonida refleksiv tahlil asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasi. Farg‘ona: FDU nashriyoti.

[11] Madrahimova, M. (2023). Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali til o‘rganishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. Oliy ta’limda innovatsiyalar, №1.

[12] Passov, E. I. (2000). Kommunikativnoye inoyazichnoye obrazovaniye: Kontseptsiya razvitiya. Voronej: Istoki.

[13] Bim, I. L. (2001). Metodika obucheniya inostrannym yazykam kak nauka i problema shkolnogo uchebnika. Moskva: Prosveshcheniye.

[14] Shchukin, A. N. (2019). Metodika obucheniya inostrannym yazykam: teoriya i praktika. Moskva: Filomatis.

[15] Kleppin, K., & Zeyer, T. (2021). Evaluation und Feedback im DaF-Unterricht: Digitale Methoden und Analytik. Berlin: Goethe-Institut Verlag.

[16] Council of Europe. (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Strasbourg: Council of Europe. CEFR key documents are maintained by the Council of Europe.

[17] Richards, J. C. (2006). Communicative Language Teaching Today. Cambridge: Cambridge University Press.

[18] Celce-Murcia, M. (2007). Rethinking the Role of Communicative Competence in Language Teaching. In Intercultural Language Use and Language Learning. Springer, pp. 41–57.

[19] Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters.